

Korruptsiyaga qarshi kurashish - umumiy burchimizdir

2022 13 Yanvar

«Uzbekistan Airways» AJning Korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha siyosatiga muvofiq aviakompaniyada inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, aviakompaniya xodimlarining huquqiy va ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni kamaytirish maqsadida «Uzbekistan Airways» AJ rasmiy saytidagi «Korruptsiyaga qarshi kurashish» bo'limida aloqa kanali tashkil etilgan bo'lib, u orqali jismoniy va yuridik shaxslar aviakompaniya xodimlari tomonidan sodir etilgan korruptsion harakatlar holatlari to'g'risida xabar berish imkoniyatiga ega.

Agar yo'lovchilar korruptsiya holatlariga duch kelsa, ular bu haqda xabar berishlari mumkin:

- Aviakompaniyaning www.uzairways.com korporativ sayti orqali, bu yerda Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'limida murojaatlar qoldirish uchun maxsus bo'lim yaratilgan;
- anticorruption@uzairways.com elektron manzili orqali;
- Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 41-uy, «Uzbekistan Airways» AJ Xavfsizlik va korruptsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi manzilida.

Xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqishda korruptsiya holatlari to'g'risida vijdonan xabar bergan jismoniy va yuridik shaxslarning maxfiyligi kafolatlanadi.

Quyidagi havola orqali biz bilan bog'laning
<https://corp.uzairways.com/ru/form/protivodeystvie-korruptcii>.

Telegram: t.me/uzbekistanairways